MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSTIETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: BOZOR TENDENSIYALARI VA XALQARO TAJRIBA 9
Abirkulova Sohibjamol Normuxammad qizi
KUZATUV KAMERALARI VIDEOMA’LUMOTLARI ASOSIDA TALABALAR DAVOMATINI HISOBGA OLISHNING INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMI ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI 15
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi
REGIONAL DISPARITIES IN FOREIGN INVESTMENT AND EXPORTS IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FOR THE TERRITORIAL TIER OF INVESTMENT GOVERNANCE 20
Imamov Javokhir
RAQAMLI PLATFORMA VA XALQARO MARKETING ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TURIZMI EKSPORTINI OSHIRISH MEXANIZMI 25
Nigmatova Malika Baxtiyorovna
РИСКИ ИИ-АВТОМАТИЗАЦИИ ПРОФЕССИЙ ДЛЯ ВЫПУСКНИКОВ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА: ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЙ АСПЕКТ 31
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
POMIDOR URUG‘LARIGA KO‘RINUVCHI OPTIK NURLANISH VA O‘ZGARUVCHAN MAGNIT MAYDON BILAN KOMBINATSIYALANGAN ISHLOV BERISHNING KO‘CHAT SIFATI VA HOSILDORLIKKA TA’SIRI 36
Rasulov Davronbek, Eshpulatov N.
TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA NATIJAGA ASOSLANGAN YONDASHUV 41
Mahmudova Chinora
BIZNESNING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASHDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI 47
Suyunova Kamilla, Xamroyeva Kumush
XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAKLLANISHI 51
Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li
ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЧАКМАКТАШ 60
Исаходжаев Х. Б., Ишбобаев Т. Б., Пирназаров М. М., Муминов М. Б., Мирзаходжаев Т. Р.
YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘QON SHAHRI IQTISODIYOTINING TARMOQLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 66
Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar
DEPOZIT STAVKALARI PASAYISHI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI VOSITACHILIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH 71
Ortiqboyev Bahrom Bahodir o‘g‘li
MEHNAT SAMARADORLIGI VA BANDLIKNING XIZMATLAR SEKTORIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI 75
Djurayev Olimjon Narkulovich
МОДЕЛЬ КОМПЛЕКСНОГО АНАЛИЗА ПРОЦЕССА КОМПЬЮТЕРНОЙ РАЗВЕДКИ ИНФОКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА 80
Бекбаев Гамзатдин Алеуатдинович
O‘ZBEKISTONDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA SUN’IY INTELLEKT BO‘YICHA TADQIQOTLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI 87
Uteuliev Niyetbay, Saytov Kamiljan
АНАЛИЗ ТЕКУЩИХ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА С УЧАСТИЕМ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ 94
Атаджанова Динара Хасановна

INVESTITSIYA RESURSLARINI YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI TARMOQLARGA QAYTA TAQSIMLASH ORQALI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI KUCHAYTIRISH..... 101

Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi

SIZING THE APERTURE AREA, PHASE-CHANGE TEMPERATURE AND STORAGE CAPACITY OF A SOLAR-CONCENTRATOR-DRIVEN PCM RADIANT FLOOR 107

Jurabek Kamolov, Sokhib Temirov Marjona Makhmudova

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ XAVFLARI BO‘YICHA TUSHUNTIRISHLI XABARNOMALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118

Abdurakhmanov Olim Kalandarovich

QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI 123

Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li

KICHIK BIZNESNI YASHIRIN IQTISODIYOTDAN CHIQARISHDA RAQAMLASHTIRISH VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK MEXANIZMLARI 129

Yunusov Marat Erkinovich

BARQAROR TRANSPORT XIZMATLARI UCHUN “YASHIL” INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 135

Quliyev Begimqul Melikovich

BO‘LAJAK VETERINAR MUTAXASSISLARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AMALIYOT 141

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

O‘ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI DEPOZITLAR BO‘YICHA FOIZ STAVKALARINING DINAMIKASI VA DIFFERENSIALLASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 146

Mamatkulov Nurbek Kamiljon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 154

Bo‘riyev Sherbek Akrom o‘g‘li

SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLARI HAMDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI 162

U. A. Shirinov

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLARI HAMDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI

U. A. Shirinov
SamISI, i.f.f.d., dotsent
E-mail: u_shirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

Annotatsiya: Segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro standartlari hamda ilg‘or xorijiy tajriba tadqiq etilgan. 8-sonli MHXS talablari asosida operatsion segmentlarni aniqlash, hisobot segmentlarini ajratish, segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar va boshqa muhim ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda ushbu ma’lumotlarni moliyaviy hisobotda ochib berishning uslubiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: segmentar hisob, segmentar hisobot, 8-sonli MHXS, operatsion segment, hisobot segmenti, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, segment daromadlari, segment xarajatlari, segment foydasi, segment aktivlari, moliyaviy hisobot, boshqaruv hisobi, xorijiy tajriba, segmentar axborot.

Аннотация: Исследованы международные стандарты организации сегментного учёта и отчётности, а также передовой зарубежный опыт. На основе требований МСФО (IFRS) 8 рассмотрены методологические аспекты идентификации операционных сегментов, выделения отчётных сегментов, формирования показателей доходов, расходов, прибыли или убытка, активов и других существенных показателей по сегментам, а также раскрытия соответствующей информации в финансовой отчётности.

Ключевые слова: сегментный учёт, сегментная отчётность, МСФО (IFRS) 8, операционный сегмент, отчётный сегмент, организации, представляющие общественный интерес, доходы сегмента, расходы сегмента, прибыль сегмента, активы сегмента, финансовая отчётность, управленческий учёт, зарубежный опыт, сегментная информация.

Abstract: International standards for the organization of segment accounting and reporting, along with advanced international practices, are examined. Based on the requirements of IFRS 8, the methodological aspects of identifying operating segments, determining reportable segments, measuring segment revenues, expenses, profit or loss, assets, and other significant indicators, as well as disclosing the relevant information in financial statements, are explored.

Keywords: segment accounting, segment reporting, IFRS 8, operating segment, reportable segment, public interest entities, segment revenue, segment expenses, segment profit, segment assets, financial reporting, management accounting, international practices, segment information.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko‘p tarmoqli tus olishi, yirik korxonalar faoliyat yo‘nalishlarining kengayishi hamda turli hududlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar sonining ortishi moliyaviy axborotni alohida faoliyat yo‘nalishlari, mahsulot va xizmat turlari hamda geografik hududlar kesimida shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Tashkilot faoliyatini umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda segmentlar kesimida baholash uning alohida tarkibiy qismlariga xos daromadlilik, xarajatlar, moliyaviy natijalar, aktivlar, majburiyatlar va tavakkalchilik darajasini batafsil aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli xalqaro amaliyotda segmentar hisob va hisobotni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilib, uning uslubiy asoslari dastlab 14-sonli BHXS, keyinchalik esa 8-sonli MHXS talablari asosida rivojlantirildi. 8-sonli MHXSda segmentlarni tashkilotning ichki boshqaruv tuzilmasi va rahbariyat tomonidan qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan moliyaviy axborot asosida aniqlashga ustuvor ahamiyat berilgan. Bunday yondashuv segmentar hisob ma’lumotlarini boshqaruv ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish hamda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tashkilot faoliyatining alohida yo‘nalishlari to‘g‘risida batafsil axborot taqdim etish imkonini beradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi segmentar hisob va hisobotni tashkil etishda ichki boshqaruv hisobi bilan tashqi moliyaviy hisobot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Kanada va Yaponiya

amaliyotida segmentlarni aniqlash, ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini alohida shakllantirish va hisobotda ochib berishda tashkilotning boshqaruv tuzilmasi hamda rahbariyat tomonidan muntazam tahlil qilinadigan axborot asos qilib olinadi. 8-sonli MHXS talablariga muvofiq operatsion segmentlarni aniqlash, ularni belgilangan miqdoriy mezonlar asosida hisobot segmentlari sifatida ajratish, segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar va boshqa muhim ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda ushbu ko‘rsatkichlarni tashkilotning umumiy moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish segmentar hisobotning axborot imkoniyatlarini oshiradi. Shu jihatdan xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish O‘zbekistondagi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotni takomillashtirish, segmentlar faoliyati samaradorligini xolis baholash hamda boshqaruv qarorlarining axborot ta’minotini yaxshilash uchun muhim ilmiy-uslubiy asos hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Segmentar hisob va hisobotning nazariy-uslubiy asoslari hamda 8-sonli MHXS talablarini amaliyotga joriy etish masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e’tibor segmentlarni aniqlash, segmentar axborotni shakllantirish, uni moliyaviy hisobotda ochib berish, segmentlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarning axborot qiymatini oshirish hamda ichki boshqaruv axboroti bilan tashqi moliyaviy hisobot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash masalalariga qaratilgan.

N. B. Nichols, D. L. Street va A. Tarca segmentar hisobotga boshqaruv nuqtayi nazaridan yondashuvning natijalarini tadqiq etib, 8-sonli MHXSning qo‘llanilishi tashkilotning ichki boshqaruv tizimida foydalaniladigan axborotni tashqi moliyaviy hisobot bilan yaqinlashtirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Mualliflar ushbu yondashuvning hisobot segmentlari soni, ochib beriladigan ko‘rsatkichlar, geografik ma’lumotlar va segmentar axborotning qaror qabul qilishdagi foydaliligiga ta’sirini tahlil qilgan. Ularning fikricha, segmentar hisobotni tashkil etishning boshqaruvga asoslangan tartibi foydalanuvchilarga tashkilot faoliyatini rahbariyat nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, segmentlar bo‘yicha axborotning qiyoslanuvchanligini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qoladi [1].

N. B. Nichols, D. L. Street va S. J. Cereola Yevropaning 14 ta fond birjasidagi yetakchi korxonalar misolida 8-sonli MHXS joriy etilishining segmentar hisobotga ta’sirini o‘rgangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, standart qo‘llanilgandan so‘ng hisobotda aks ettirilgan operatsion segmentlar soni o‘rtacha hisobda oshgan va geografik axborotni batafsilroq ochib berish kuzatilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda segment majburiyatlari hamda ayrim kapital xarajatlari bo‘yicha ochib beriladigan ma’lumotlar hajmining qisqargani qayd etilgan. Mualliflar segmentlar foydasini aniqlash usullaridagi farqlar tashkilotlar o‘rtasida segmentar ko‘rsatkichlarni qiyoslash imkoniyatiga ta’sir qilishi mumkinligini ham qayd etgan [2].

H. Kang va S. J. Gray Avstraliya fond birjasida ro‘yxatga olingan 200 ta yirik tashkilotning segmentar hisobotlarini standart joriy etilishidan oldingi va keyingi davrlar bo‘yicha o‘rgangan. Tadqiqot natijalarida 8-sonli MHXSga mos talablar joriy etilgandan keyin hisobot segmentlari soni hamda segmentlar bo‘yicha ochib beriladigan ma’lumotlar hajmi oshgani aniqlangan. Shu bilan birga, korxonalarning katta qismi segmentlarni aniqlashning avvalgi tartibini saqlab qolgan. Bu holat standartni qabul qilish bilan bir qatorda, segmentar hisob tizimini rivojlantirishda korxonaning ichki boshqaruv hisobi va tashkiliy tuzilmasini ham hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi [3].

P. Kajüter va M. Nienhaus Germaniya fond bozorida faoliyat yurituvchi tashkilotlar ma’lumotlari asosida 8-sonli MHXS joriy etilishining segmentar hisobotda taqdim etiladigan axborotning foydaliligiga ta’sirini baholagan. Tadqiqotda standart joriy etilishidan oldingi va keyingi segmentar ma’lumotlarning qiymatga bog‘liqligi qiyoslangan. Natijalar 8-sonli MHXS asosida shakllantirilgan segmentar axborot avvalgi tartibga nisbatan investorlar uchun yuqoriroq axborot qiymatiga ega ekanini ko‘rsatgan. Shuningdek, standartning qo‘llanilishi tashkilot va investorlar o‘rtasidagi axborot nomutanosibligining kamayishi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Bu esa segmentar hisobot kapital bozorida qaror qabul qilish uchun muhim axborot manbai ekanligini ko‘rsatadi [4].

P. André, A. Filip va R. Moldovan segmentlar bo‘yicha ochib beriladigan axborotning miqdori va sifatini tadqiq etgan. Mualliflar segmentar axborot miqdorini segmentlar bo‘yicha ochib berilgan ko‘rsatkichlar soni, uning sifatini esa segmentlarning moliyaviy natijalari o‘rtasidagi farqlanish darajasi orqali baholagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbariyatning segmentar axborotni shakllantirish bo‘yicha qarorlari ayrim hollarda tijorat nuqtayi nazaridan muhim ma’lumotlarni ochib berish hajmiga ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, segmentar axborot sifatidagi farqlar moliyaviy tahlilchilarning kelajakdagi moliyaviy natijalarni baholash aniqligiga ta’sir qilishi aniqlangan [5].

Ispaniya korxonalari misolida amalga oshirilgan tadqiqotlarda 8-sonli MHXS joriy etilgandan keyingi segmentar axborotni ochib berish holati o‘rganilgan. Natijalar ayrim korxonalarda segmentar hisobotni tashkilotning amaldagi tashkiliy tuzilmasi bilan yanada uyg‘unlashtirish imkoniyatlari mavjudligini hamda

ko‘plab tashkilotlar standart joriy etilganidan keyin ham qo‘shimcha segmentar axborotni cheklangan darajada taqdim etganini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, korxona hajmi segmentlar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni ochib berishga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlangan [6].

Segmentar hisobotga oid tadqiqotlarning umumlashtirilishi shuni ko‘rsatadiki, 8-sonli MHXSning asosiy ustunligi segmentar axborotni tashkilotning ichki boshqaruv tizimi bilan bog‘lash imkoniyatining mavjudligidadir. Bunday yondashuv moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tashkilot rahbariyati uning alohida faoliyat yo‘nalishlarini qanday baholashi va ular bo‘yicha resurslarni qanday taqsimlashi haqida axborot olish imkonini beradi. Shu bilan birga, N. B. Nichols, D. L. Street va A. Tarca tomonidan umumlashtirilgan tadqiqotlarda standartning qo‘llanilishi bilan bir qatorda, segmentar axborotning qiyoslanuvchanligini oshirish, segmentlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarni o‘lchash usullarini takomillashtirish va ochib beriladigan ma’lumotlar tarkibini yanada aniqlashtirish zarurati saqlanib qolayotgani qayd etiladi [7].

Yevropa mamlakatlari tajribasini o‘rgangan keyingi tadqiqotlarda esa segmentar axborotning sifati faqat 8-sonli MHXS talablariga emas, balki tashkilotning mulkchilik tuzilmasi, boshqaruv tizimi, axborotni oshkor etish siyosati hamda institutsional muhitga ham bog‘liqligi asoslangan. Korxonalar segmentlar bo‘yicha ochib beriladigan axborot miqdori va sifatini belgilashda turlicha yondashuvlardan foydalanishi mumkinligi aniqlangan. Shu sababli segmentar hisobotning samaradorligini baholashda standart talablariga rioya etish bilan bir qatorda, taqdim etilayotgan axborotning mazmuni, batafsilligi va foydalanuvchilar uchun amaliy ahamiyatini ham hisobga olish zarur [8].

Tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, 8-sonli MHXS segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro uslubiy asosini shakllantirgan bo‘lsa-da, uni qo‘llash natijalari mamlakatlar va tashkilotlar kesimida farqlanadi. Xorijiy tajribada segmentlarni tashkilotning ichki boshqaruv tuzilmasiga muvofiq aniqlash, segmentar ko‘rsatkichlarni umumiy moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish hamda segmentlar bo‘yicha axborotning foydaliligini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistondagi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotni takomillashtirishda xorijiy tajribani milliy hisob tizimi, tashkilotlarning boshqaruv tuzilmasi va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro standartlari hamda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganishda tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash hamda ilmiy mushohada usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning uslubiy asosini 8-sonli MHXS talablari, segmentar hisobotni tartibga soluvchi xalqaro me’yoriy hujjatlar hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro tajribasini o‘rganish natijalari turli mamlakatlarda ushbu tizimning shakllanishi va rivojlanishi milliy hisob tizimi, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi hamda tashkilotlarning boshqaruv tuzilmasi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, 8-sonli MHXS talablarining xalqaro amaliyotga joriy etilishi segmentar axborotni shakllantirishda yangi yondashuvni yuzaga keltirib, tashkilot faoliyatini rahbariyat tomonidan muntazam nazorat qilinadigan va baholanadigan alohida faoliyat yo‘nalishlari kesimida aks ettirishga asos yaratdi. Natijada segmentar hisobot nafaqat moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi, balki alohida segmentlarning daromadlari, xarajatlari, moliyaviy natijalari, aktivlari va boshqa muhim ko‘rsatkichlarini baholash, ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiluvchi muhim axborot manbaiga aylandi.

Tadqiqot doirasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Kanada va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda segmentar hisob va hisobotni tashkil etish tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Bunda asosiy e’tibor operatsion segmentlarni aniqlash va hisobot segmentlarini ajratish mezonlari, segmentar ko‘rsatkichlarni shakllantirish tartibi, segmentlar bo‘yicha axborotni ochib berish darajasi, ichki boshqaruv hisobi bilan tashqi moliyaviy hisobotning o‘zaro bog‘liqligi hamda 8-sonli MHXS talablarini amaliyotga tatbiq etish xususiyatlariga qaratildi. O‘tkazilgan tahlil natijalari xorijiy tajribadagi ilg‘or yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash, ularni O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslash hamda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi.

1-jadval
Ayrim xorijiy davlatlarda 8-sonli MHXSni qo‘llash holati[1]

№	Davlat yoki hudud	8-sonli MHXSni qo‘llash holati	Asosiy qo‘llanish doirasi	O‘ziga xos jihati
1	Buyuk Britaniya	Majburiy	Tartibga solinadigan bozorda qimmatli qog‘ozlari muomalada bo‘lgan ayrim tashkilotlarning jamlangan moliyaviy hisobotlari	Segmentar axborot tashkilotning ichki boshqaruv tuzilmasiga muvofiq shakllantiriladi
2	Germaniya	Majburiy	Tartibga solinadigan bozordagi tashkilotlarning jamlangan moliyaviy hisobotlari	Yevropa Ittifoqida qabul qilingan MHXSlar asosida qo‘llaniladi
3	Fransiya	Majburiy	Tartibga solinadigan bozordagi tashkilotlarning jamlangan moliyaviy hisobotlari	Segmentlar bo‘yicha moliyaviy axborotni ochib berishga alohida e’tibor qaratiladi
4	Italiya	Majburiy	Ommaviy bozorda faoliyat yurituvchi tashkilotlarning jamlangan moliyaviy hisobotlari	Yevropa Ittifoqida qabul qilingan MHXSlar tizimi amal qiladi
5	Ispaniya	Majburiy	Tartibga solinadigan bozordagi tashkilotlarning jamlangan moliyaviy hisobotlari	Segmentar axborot tashqi moliyaviy hisobot tarkibida ochib beriladi
6	Kanada	Asosan majburiy	Jamoat oldida hisobdor tashkilotlar	Ayrim tashkilotlarda boshqa tan olingan hisob qoidalaridan foydalanish imkoniyati mavjud
7	Avstraliya	Majburiy	Ommaviy hisobdor tashkilotlar va tegishli hisobot tuzuvchilar	Milliy me’yorlar MHXS talablariga uyg‘unlashtirilgan
8	Janubiy Afrika Respublikasi	Majburiy	Qimmatli qog‘ozlari ochiq bozorda muomalada bo‘lgan tashkilotlar	MHXSlar moliyaviy hisobotning asosiy me’yoriy negizlaridan biri hisoblanadi
9	Yaponiya	Ixtiyoriy qo‘llashga ruxsat etilgan	Belgilangan mezonlarga javob beruvchi tashkilotlar, jumladan, ro‘yxatga olingan ko‘plab tashkilotlar	MHXS bilan bir qatorda milliy hisob qoidalaridan foydalanish imkoniyati mavjud
10	Janubiy Koreya	Majburiy	Qimmatli qog‘ozlari bozorda muomalada bo‘lgan tashkilotlar	MHXSga uyg‘unlashtirilgan milliy tizim orqali qo‘llaniladi
11	Gruziya	Majburiy	Jamoat ahamiyatiga ega va birinchi toifadagi tashkilotlar	Boshqa tashkilotlarga ham to‘liq MHXSni qo‘llashga ruxsat beriladi
12	O‘zbekiston	Belgilangan tashkilotlar uchun majburiy	Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, yirik soliq to‘lovchilar va qonunchilikda belgilangan boshqa tashkilotlar	MHXSlarning to‘liq to‘plami tan olingan; boshqa tashkilotlar ularni ixtiyoriy qo‘llashi mumkin


Yevropa Ittifoqida qimmatli qog‘ozlari tartibga solinadigan bozorda muomalada bo‘lgan tashkilotlardan jamlangan moliyaviy hisobotlarini Yevropa Ittifoqida qabul qilingan MHXSlar asosida tayyorlash talab etiladi. Shu sababli Germaniya, Fransiya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlarda tegishli tashkilotlar uchun 8-sonli MHXS segmentar axborotni shakllantirishning asosiy xalqaro me’yoriy manbalaridan biri hisoblanadi.

Kanadada MHXSlar ayrim istisnolarni hisobga olgan holda jamoat oldida hisobdor tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Yaponiyada esa belgilangan talablarga javob beruvchi tashkilotlarga MHXSlarni qo‘llashga ruxsat etilgan, biroq ular barcha tashkilotlar uchun majburiy emas. Demak, 8-sonli MHXSning xalqaro miqyosda qo‘llanishini baholashda «majburiy qo‘llash» va «ixtiyoriy qo‘llashga ruxsat berish» holatlarini alohida ajratish zarur.

O‘zbekiston uchun bu tajriba ayniqsa ahamiyatlidir. MHXS jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, yirik soliq to‘lovchilar hamda belgilangan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlashi lozim. Boshqa tashkilotlarga esa MHXSni ixtiyoriy qo‘llash imkoniyati berilgan. Shunga ko‘ra, 8-sonli MHXSni O‘zbekistondagi

1 Manba: muallif ishlanmasi

jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda qo‘llashning uslubiy asoslarini xorijiy tajriba bilan qiyosiy tadqiq etish segmentar hisob va hisobotni takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. 8-sonli MHXSni qo‘llaydigan korxonalar sonining davlatlar kesimidagi taqsimoti[2]

Rasm ma’lumotlari 8-sonli MHXS asosida segmentar axborotni shakllantiruvchi korxonalarning davlatlar kesimidagi taqsimotida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday farqlanish mamlakatlarda MHXSni joriy etish darajasi, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganligi, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar soni hamda moliyaviy hisobotga qo‘yiladigan talablarning xususiyatlari bilan izohlanadi. Rasmda AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Yaponiya va Avstraliya kabi yirik iqtisodiyotlarda segmentlar bo‘yicha moliyaviy axborot taqdim etuvchi korxonalar ko‘proq jamlangani aks ettirilgan. Bu holat mazkur mamlakatlarda yirik va ko‘p tarmoqli korxonalar faoliyatining kengligi hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning qarorlar qabul qilishida segmentar axborotdan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, 8-sonli MHXSni qo‘llash ko‘lami mamlakatdagi barcha korxonalar soni bilan emas, balki ushbu standartning qo‘llanish doirasiga kiruvchi tashkilotlar soni bilan bog‘liq. Chunki 8-sonli MHXS, avvalo, qarz yoki ulush vositalari ochiq bozorda muomalada bo‘lgan yoxud ularni ochiq bozorga chiqarish maqsadida moliyaviy hisobotlarini vakolatli tashkilotga taqdim etayotgan subyektlarning alohida yoki yakka moliyaviy hisobotlariga, shuningdek, shunday bosh tashkilotga ega guruhning jamlangan moliyaviy hisobotlariga tatbiq etiladi. Shu jihatdan xorijiy tajribani o‘rganish O‘zbekistondagi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotni rivojlantirish, segmentlarni to‘g‘ri aniqlash hamda ular bo‘yicha axborotni 8-sonli MHXS talablariga muvofiq shakllantirish uchun muhim uslubiy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro tajribasi 8-sonli MHXS talablari asosida tashkilotning ichki boshqaruv tizimi bilan moliyaviy hisobot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilganligini ko‘rsatdi. Xorijiy davlatlar tajribasida segmentlarni tashkilotning amaldagi boshqaruv tuzilmasidan kelib chiqib aniqlash, ular bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar va boshqa muhim moliyaviy ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda ularni umumiy moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish segmentar hisobotning asosiy uslubiy yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday yondashuv tashkilotning alohida faoliyat yo‘nalishlari samaradorligini baholash, resurslarni oqilona taqsimlash va manfaatdor tomonlarni batafsil moliyaviy axborot bilan ta’minlash imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistondagi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar

2 Manba: muallif ishlanmasi

hisob va hisobotni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi uchta taklif ilgari suriladi:

1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni aniqlashning yagona uslubiy tartibini ishlab chiqish taklif etiladi. Bunda segmentlarni aniqlash tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat yo‘nalishlari, hududlari, daromad manbalari hamda rahbariyat tomonidan muntazam tahlil qilinadigan ichki moliyaviy axborotga asoslanishi lozim. Mazkur tartib 8-sonli MHXS talablarini milliy amaliyotda bir xil qo‘llashga xizmat qiladi.

2. Segmentlar bo‘yicha alohida tahliliy hisob yuritish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni tegishli segmentga biriktirish imkonini beruvchi segment kodlarini buxgalteriya hisobining tahliliy hisobvaraqlariga kiritish taklif etiladi. Natijada birlamchi hisob ma’lumotlaridan boshlab yakuniy segmentar hisobotgacha bo‘lgan axborotning uzluksizligi va ishonchliligi ta’minlanadi.

3. Ichki segmentar hisobot bilan 8-sonli MHXS asosida shakllantiriladigan tashqi segmentar axborotni o‘zaro muvofiqlashtirish tartibini joriy etish taklif etiladi. Bunda segmentlar bo‘yicha ichki hisobotda shakllantirilgan daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar va aktivlar ko‘rsatkichlarini moliyaviy hisobotdagi umumiy ko‘rsatkichlar bilan solishtirish hamda muvofiqlashtirish jadvalini ishlab chiqish lozim. Ushbu taklif segmentar axborotning shaffofligi va qiyoslanuvchanligini oshirib, tashkilot rahbariyati, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur axborot bazasini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nichols, N. B. The Impact of Segment Reporting Under the IFRS 8 and SFAS 131 Management Approach: A Research Review / N. B. Nichols, D. L. Street, A. Tarca // Journal of International Financial Management & Accounting. – 2013. – Vol. 24, No. 3. – P. 261–312. – DOI: 10.1111/jifm.12012.
2. Nichols, N. B. An Analysis of the Impact of Adopting IFRS 8 on the Segment Disclosures of European Blue Chip Companies / N. B. Nichols, D. L. Street, S. J. Cereola // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2012. – Vol. 21, No. 2. – P. 79–105. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2012.07.001.
3. Kang, H. Segment Reporting Practices in Australia: Has IFRS 8 Made a Difference? / H. Kang, S. J. Gray // Australian Accounting Review. – 2013. – Vol. 23, No. 3. – P. 232–243. – DOI: 10.1111/j.1835-2561.2012.00173.x.
4. Kajüter, P. The Impact of IFRS 8 Adoption on the Usefulness of Segment Reports / P. Kajüter, M. Nienhaus // Abacus. – 2017. – Vol. 53, No. 1. – P. 28–58. – DOI: 10.1111/abac.12105.
5. André, P. Segment Disclosure Quantity and Quality under IFRS 8: Determinants and the Effect on Financial Analysts’ Earnings Forecast Errors / P. André, A. Filip, R. Moldovan // The International Journal of Accounting. – 2016. – Vol. 51, No. 4. – P. 443–461.
6. Segment Disclosures under IFRS 8’s Management Approach: Has Segment Reporting Improved? // Spanish Journal of Finance and Accounting. – 2015. – Vol. 44, No. 2. – DOI: 10.1080/02102412.2014.987445.
7. Nichols, N. B. The Impact of Segment Reporting Under the IFRS 8 and SFAS 131 Management Approach: A Research Review / N. B. Nichols, D. L. Street, A. Tarca // Journal of International Financial Management & Accounting. – 2013. – Vol. 24, No. 3. – P. 261–312. – DOI: 10.1111/jifm.12012.
8. Managers’ Segment Disclosure Choices under IFRS 8: EU Evidence // Accounting Forum. – 2018. – Vol. 42, No. 4.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100